**Тошкент давлат иқтисодиёт университети**
**ректори проф. К. Шариповга**

**«Ижтимоий-гуманитар ва аниқ фанлар»**
**кафедраси мудири проф. Н. Хакимовдан**

# БИЛДИРИШНОМА

Ушбу билдиришнома орқали сизга шуни маълум қиламанки, Ўзбекистон Республикаси “Очиқ бюджет” портали (openbudget.uz) томонидан ташкил қилинган “Фуқаролар ташаббуси жамғармаси” танловида биринчи босқичида жамоатчиликнинг фикрлари асосида менинг муаллифлигиидаги **«Иқтисодий таълимотлар тарихи»** номли дарслигим ташаббус ғолиби деб топилди.

*(Xalq deputatlari Chilonzor tuman Kengashining 2022 yil 15 apreldagi II-58-49-14-204-K/22-son qaroriga 1-ilova).*

Шу муносабат билан Сиздан ушбу дарсликнинг иловада ***(таклиф ID рақами: 0060400010)*** кўрсатилган амалга оширишнинг аниқланган қиймати 120 000 000 (бир юз йигирма миллион) сўм миқдордаги танловни ташкил этиш учун тегишли бўлинмаларга кўрсатма беришингизни сўрайман.

Танловни ўтказиш бўйича тегишли хужжатлар, техник парамертлар ва топшириқлар илова қилинади *(2-илова)*.

**«Ижтимоий-гуманитар ва аниқ фанлар»**
**кафедраси мудири** **проф. Н. Хакимов**

# XALQ DEPUTATLARI CHILONZOR TUMAN KENGASHINING
# Q A R O R I

2022 - yil 15 - aprel II-58-49-14-204-K/22 Chilonzor tuman hokimligi

**Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dagi mablag'larni mazkur tadbirlarga yo'naltirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli, 2022-yil 26-yanvardagi KQ-302-IV-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash, jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish va ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiyaning 2022-yil 6-apreldagi yig'ilish bayonini inobatga olib hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi,

**Q A R O R Q I L A D I :**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli, 2022-yil 26-yanvardagi KQ-302-IV-sonli Qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining "Ochiq byudjet" axborot portali orqali "Tashabbusli byudjet" jarayonida fuqarolar tomonidan o'z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya'ni "ovoz berish" jarayoni yakunida aniqlangan "g'olib" takliflar ro'yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha manzilli ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Chilonzor tuman hokimligining Axborot xizmati (M.Boliyeva) va tuman hokimligi Moliya bo'limi (Z.Fayzullayev) bilan birgalikda 3-bosqich, ya'ni "ovoz berish" jarayoni yakunida aniqlangan "g'olib" takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Xodjimanov) tuman Moliya bo'limi mudiri v.v.b (Sh.Xabibullayev) lar zimmasiga yuklansin.

**Sessiya Raisi** **Ahmedov O. Y.**

Xalq deputatlari Chilonzor tuman Kengashining
2022 yil 15 apreldagi
II-58-49-14-204-K/22-son qaroriga
1-ilova

**"Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi" birinchi bosqichi uchun jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarini moliyalashtirish bo'yicha**

**MANZILLI RO'YHAT**

| № | G'olib takliflar ma'lumotlari | | | Amalga oshirish-ning aniqlan-gan qiymati | Xaqiqatda ajratilgan | Moliyalash-tirish manbasi (FTJ Qo'shimcha manba budjet parametiri ) | Buyurtmachi tashkilot |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Taklifning ID raqami | Qisqacha mazmuni | To'plagan ovozlar soni | | | | |
| "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakillangan mablag' | | | | | 11 357,0 | x | x |
| 1 | 0060400037 | Toshkent shahar Chilonzor tumani 561-sonli DMTT ga farzandim 2 yildan buyon ushbu bog'chaga qatnaydi ammo bog'chaning bolalar mebel jihozlari juda ham eski bo'lganligi sababli yangi mebel jihozlari bilan ta'minlash kera | 3 092 | 645,0 | 645,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi |
| 2 | 0060400010 | "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi, uning asosiy muammolari" nomli kitob chop etish zarur. Ushbu kitobda fanning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Iqtisodiy g'oyalar va tushunchalarning paydo bo'lishi, farqlanishi va o'zgarishining tarixiy jarayoni bilan bog'liq bo'lgan fan. | 2 827 | 120,0 | 120,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Oliy ta'lim muasasasi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | 0060400039 | Chilonzor tumanidagi 586-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotining bolalar mebel jihozlari zudlik bilan yangilashga muhtoj, farzandlarimiz eski stol-stul va boshqa mebel jihozlaridan foydalanib kelishmoqda. Bog'chani yangi mebel jihozlar bilan ta'minlash shart. | 2 775 | 653,0 | 653,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi |
| 4 | 0060400042 | Chilonzor tumani Oq-tepa MFY 7/17 da joylashgan 265-sonli maktabgacha ta'lim muassasasini mebel jihozlari bilan ta'minlash kerak. Chunki mebel jihozlari eskirgan va bola hayoti uchun xavfli. | 2 141 | 647,0 | 647,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi |
| 5 | 0060400255 | Chilonzor tumanida joylashgan 35-sonli oilaviy poliklinika mebel jihozlari bilan ta'minlansa, barcha ishlovchi tibbiy xodimlarga va bemorlarga yanada qulaylik yaratilgan bo'lardi. | 1 993 | 355,0 | 355,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Tuman Tibbiyot birlashmasi |
| 6 | 0060400095 | 200-sonli IDUMda o'quvchilarning soni ko'payganligi sababli ularning sport mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanishi uchun futbol maydonini qayta ta'mirlash. | 1 884 | 360,0 | 360,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Tuman Xalq ta'limi bo'limi |
| 7 | 0060400103 | Yangi O'zbekistonga zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan maktablar yarashadi. Biz 178-sonli maktabimizni zamonaviy chet el maktablaridan qolishmaydigan bo'lishini xohlaymiz, shu sababli maktabimizning o'quv xonalariga mebel jihozlari stol-stul, yangi zamonaviy partalar bilan ta'minlash kerak. | 1 466 | 950,0 | 950,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Tuman Xalq ta'limi bo'limi |
| 8 | 0060400108 | Kompyuter texnologiyalari bugungi kunning eng dolzarb vazifasi va davr talabidir. Shu nuqtai nazardan Chilonzor tumani 114-maktab o'quvchilariga zamonaviy texnologiya va jihozlardan foydalanishda, ta'limda axborot texnologiyalari barchaning to'liq va qulay bilim olishi uchun zarur. | 1 443 | 400,0 | 400,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Tuman Xalq ta'limi bo'limi |
| 9 | 0060400035 | Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 534-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotining santexnikasi achinarli ahvolda ya'ni bolalar hojatxonalari, oshxonalari kafel, quvur hamda unitazlarni almashtirish kerak. | 1 432 | 380,0 | 380,0 | Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi | Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi |